

## TASVIRIY SAN'ATNING YARATILISH TARIXI VA UNING KSHILIK JAMIYATIDAGI AHAMIYATI

*Boboniyozova Roziya Mirsalim qizi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*

*Samarqand viloyat Paxtachi tuman 16-umumta'lim maktabida tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada tasviriy sa'natning yaratilish tarixi, dars sifatida ta'lif tizimiga kirib kelishi, hamda tasviriy sa'nat rivojlanishida davriy bosqichlar xususida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *savafiyalar, sharq tasviriy sa'nati, kamyogarlik, lak-bo 'yoq kabi ashylolar, fazoviy chiziq, siluet, badiiy ta'sir vositalari...*

### **KIRISH**

Sharq tasviriy san'ati jahon madaniyati tarixida ulkan mavqega ega ekanligi bilan ajralib turadi. U o'zida markaziy Osiyo mintaqali xalqlari va avlodlarining badiiy-estetik me'rosini mujassamlashtirgan. Tadqiqotchilar tasviriy san'atni tarixini devoriy rasmlarda va qadimiy kitoblardagi ertak-afsona qaxramonlari timsolida talqin qiladilar. Tarixchi va etnograflar uchun bu beqiyos manba o'tgan asrlar odamlarining madaniy va moddiy hayot tarzi haqidagi noyob ma'lumotlardan dalolat beradi. Kamyogarlik, lak-bo 'yoq kabi ashylarning qadimiy tayyorlash jarayonini o'rGANADIGAN o'ziga xos me'ros hisoblanadi. Sharq tasviriy san'ati o'zining dastlabki ko'rinishini arab yarim oroli mamlakatlari, sosoniylar Eroni va Markaziy Osiyodagi devoriy rasm va haykaltaroshlik na'munalari ko'rinishlaridan olingan. San'atshunoslar taxmin qiladilarki, Eronda (zasr) qadimiy qo'lyo'zmalar miniyaturlar bilan bezatilgan. U san'at turi sifatida islom davridan, ya'ni 7-asrdan boshlangan.

### **METODOLOGIYA**

Sharq miniatyurasi o‘z rivojlanishi davomida uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Sharq miniatyurasi san’ati tarixida qator maktablarni o‘zida birlashtiruvchi to‘rt asriy davr mavjud:

1. Temuriylar davri Xuroson va Movarounnaxr (Hirot, Samarqand, Tabriz, Sheroz maktablari)
2. Savafiylar davri - Eron (Sheroz, Tabriz, Mashxad, Isfaxon maktablari)
3. Shayboniylar davri - Markaziy Osiyo (Buxoro, Samarqand maktablari)
4. Boburiylar davri - Hindiston (Agra, Dexli maktablari)
5. XVII-XX asrlar Markaziy Osiyo miniatyura markazlari.

Sharq miniatyurasining badiiy ta’sir vositalari haqida gapirganda ularni tashkil etuvchi rang, ritm va uning boshqa elementlarini ta’kidlash juda muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda, miniatyurada shunday shartlar asosli ustunlik qiladiki, bular chiziqli-naqshli, ritm-masofali chiziqlar, siluet kabilar badiiy obrazlarni yaratishda ifodali vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Chiziqlarning ahamiyati haqida M.M. Ashrafiy o‘zining “Behzod va XVI asr Buxoro miniatyura maktabining rivojlanishi” (Dushanbe, 1987 y.) nomli monografiyasida shunday yozadi: “Tasvir chiziqning ohangdorligi, ravonligi yoki nozikligi bilan emosional ohangdorlik darajasiga ko‘tariladi. Yengil iz qoldirish natijasida chegaralarning ko‘z ilg’amas nozikliklaridan tortib, toki kerakli qalinliklarigacha uning imkoniyati aytib bo‘lmas darajada keng. Chiziqlar rivojlanishi bilan egiluvchan, harakatli, nazokatli aynan aniqlikka ega bo‘ladi. U ham tasviriylar, ham estetik ahamiyatga ega bo‘lgan elementdir”. Kompozitorning bu fikrlariga butunlay qo‘shilish mumkin. Ammo muallif miniatyuradagi chiziqqa aniq va ravon javob bermaydi, shu sababli bu termin chalkashlik maqomini oladi. Biz o‘ylaymizki, keyingi o‘n yilliklarda san’atshunoslik va tasviriylar san’atni o‘qitish metodikasida mavjud bo‘lgan «fazoviy chiziq» degan tushunchaga miniatyuradagi chiziqlar o‘z tuzilishi bo‘yicha to‘liq mos keladi. O‘rta asrlar sharq miniatyurasida rangning ahamiyati juda kattadir. Balki, sharq va g’arb rangtasvirining asosiy farqi shundaki, miniatyurada rangning o‘z estetik qiymatiga

ega bo‘lganligidadir. Yalt etib ko‘zga tashlanuvchi gilamni eslatuvchi miniatyuradagi barcha kompozitsiyalar uzoq vaqt o‘y-xayolga cho‘mishga, mushohada qilishga yo‘naltirilgan. Kartinaga diqqat bilan qarash natijasida tomoshabin juda mohirlik, noziklik bilan chizilgan yangidan yangi detallar va personajlarni guvohi bo‘ladi. Kishida yorqin, jaranglaydigan sof lokal ranglar o‘yini va garmoniyasi shoirona kayfiyat hosil qiladi. Kolorit (rasmida ranglarning bir biriga mos kelishi) noziklik bilan hamohang yoki qarama-qarshi holatda issiq va sovuq ranglarning uyg’unlashuvi bilan o‘rin bo‘shatish asosida tuzilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Miniatyuradagi ritmga ajratilgan umumiy emosional holatining roliga alohida to‘xtalish zarur. Ritm tasviriy san’atda ma’lum bir elementlar, ranglar, tuslar va hokazolarning navbatи bilan takrorlanishiga asoslangan. E.V. Shoroxovning «Kompozitsiya» darsligida (M, 1986) ritm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

- Ritm ... kompozitsiya qonunlariga tus va rangli qarama-qarshilik asoslanadi. Bunga to‘liq qo‘shilish mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan aniqlashlar sharq miniatyurasida ham qo‘llanishi mumkin. XVI asr Buxoro (Markaziy Osiyo) miniatyura maktablari haqidagi tadqiqotlar nuqtai nazaridan qarash shuni asoslashga imkon beradiki: «Ritm miniatyurada takrorlashga asoslanadi: 1) chiziq; 2) ranglar; 3) yoro‘glik doglari; 4) turli xil o‘lchamdagи va shakldagi tekisliklar; 5) miniatyura fazosidagi ma’lum davrdan so‘ng to‘ldirilmagan joy (o‘sha joyda 10- bet). Ko‘rib turibmizki, sharq miniatyura kompozitsiyasida har bir qonunlari ritmik san’atning umumiy qoidalariga asoslangan. O‘rta asrlar ustalari kompozitsianing bu samarali usullaridan mohirona foydalanganlar. Rassom ritm vositalar bilan syujetdagi turli emosional holatlarni tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan: tantanali marosimlar (saroy qabullari...); jo‘shqinlik, zo‘riqish, g’amginlik, xotirjamlik va hokazo... Bunga rang va yoro‘g’likning o‘rin almashishi, takrorlanishi chiziqlar, shakllar, fazolar dinamik darajasi natijasida erishganlar. M.M. Ashrafiy o‘zining monografiyasida eslatib o‘tgan «ritm tempi», “tezlashgan ritm tempi”, “sekin ritm tempi” degan ifodalarni

aniqlashni kengaytirishga asos berdi. XVI asrdan boshlab rasm bilan bezash vazifasidan tashqari mustaqil rol o‘ynagan. Rassomning ish bajarish ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lgan: kompozitsiya rasmni musavvir tomonidan qalam ishlatmasdan mo‘yqalamni oddiy suvga botirilgan holda ko‘chirilgan (chizilgan). Bunday usul chizuvchidan nuqsonsiz rasm chizish malakasini egallashni talab etgan. Chunki miniatyuradagi syujetlar murakkab, ko‘p figuralar va detallardan iborat bo‘lgan. Qurigandan so‘ng suvdan qolgan izlar ustidan kompozitsiyadagi rasm qizil va qora siyohlar yoki tushlar bilan chizib chiqilgan. Ishning bu jarayoni “gilyapiri” yoki “gilamgiri” deb nomlangan, bu turkiy yoki forsiy tillar dialektikasiga bog’liq. Tayyor bo‘lgan rasm “nireng» deb nomlangan va kleister aralashmasi, tuxum oqi bilan silliqlangan va jilo berilgan. Yupqa grunt ostidan ko‘ringan rasm konturi chizib chiqilgan va qurigandan so‘ng ranglashga o‘tilgan. Miniatyura bajarishning boshqa usuli Abulfael Xubeysh Ibn Ibrohim Tiflisiyning (XII asr) “Hunarmandchilik texnologiyasi” risolasida aniq ko‘rsatilgan. Bunda rasm konturi o‘tkazilgandan so‘ng, kleyster bilan emas, balki olcha elimi aralashtirilgan qo‘rgoshinli oq bo‘yoq (svinstovaya belila) bilan qoplash tavsiya etilgan. Traktat muallifi ko‘rsatadiki, grunt qurigandan so‘ng ustidan qizil rang bilan chizib chiqilgan va shundan so‘ng ranglashga (510 Kamoliddin Behzodning tugatilmay qolingan miniatyurasi “Sulton Husayn Mirzo bogida” XV asr oxiri, Hiro) miniatyurasi bizga musavvirning kompozitsiya ustidagi ishining ketma-ketligini aniqlashga imkonini beradi. Agar realistik san’atning asosiy metodi umumiylidkan xususiylikka va xususiylikdan umumlashtirilishga tayansak, bu qonun sharq miniatyura rangtasvirida bir oz boshqacharoq ko‘rinadi. Rassom kompozitsiyadagi eng katta tekisliklarni yer, osmon, arxitektura va manzarani (bu miniatyurada bog’ yashilliklarini, gullar, daraxtlar va qasr devorining bir qismi ishlangan) rang bilan qoplab chiqadi. Shu bilan, ehtimol, Yevropacha rangtasvir metodi (postulati), isbotsiz asos qilib olgan qoida ham tugaydi. Shundan so‘ng ish ketma - ketligi kompozitsiyadagi detallarni bir rang bilan keyin ikkinchi, uchinchi rang bilan bir predmetdan ikkinchi predmetga o‘tish orqali

bajarishga asoslangan. Yozishning bu metodi ranglarning lokal tuslarini qo‘llanishiga asoslangan. Ranglarni qo‘shish kerak bo‘lganda ham faqatgina ikki rangni olib qo‘shish tavsiya etiladi, bunda ham natijasi yangi yorqin rangni bersagina qo‘shish mumkin bo‘lgan. Palitra tushushunchasi u vaqtarda bo‘lmagan. Tayyorlangan ranglar uncha katta bo‘lmagan idishlarda saqlangan va rassom navbati bilan mo‘yqalamni botirib olgan. Miniatyura rangtasvirining emosional ta’siri quyidagicha qurilgan: yorqin, hamohang lokal ranglar kontrasti, kompozitsiyaning dekorativ go‘zalligi, zargarona, aniq detallarni ishlash orqali uzoq vaqt mushohada yuritishga, shu bilan bir qatorda tilda va nutaraning ishlatilishi garmonik san’at asarlarining tugilishiga olib keladi. Navbat bilan barcha detallarni yozib chiqish rassomdan katta mohirlik va rangni nozik his qilishni talab qilgan. Sodiqbek Afsharning rangtasvir haqidagi risolasida rangtasvir texnikasi usullari haqidagi ma’lumotlarni bizgacha etkazadi. U shunday yozadi: - yozishning ikki usuli bo‘lib bular yaxshi va yoqimlidir: ulardan biri - “danshuy”, ikkinchisi “minyonshuy” Agar mevali daraxt guliga o‘xhash naqsh chizmoqchi bo‘lsang - “miyonshuy” senga yordam beradi. Buni quyidagicha tushunish mumkinki, birinchi usul bu mayda detallar ustida ishslash usulidir, ikkinchisi esa umumi yozuvlarni yozishdan iborat. Texnik usullar suvsiz hozirgi zamon akvarel va guash texnikasiga to‘gri keladi. O‘rta asrlar olimining maslahatlari pedagogik nuqtai nazardan juda foydalidir, u «mo‘yqalamni boglash va ushslash” bo‘limida shunday deb yozadi: – ... mo‘yqalamni ikki barmoq orasida ushslash kerak. Sharq tasviriy san’at muktabalarining rivojlanishi va ularning uslublari, O’rta Osiyo, Eron, Hind, Misr miniatyurasi, kitoblarga bezak ishslash muktablari (K.Behzod), asarlarining badiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asar yaratishlarida poydevor vazifasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o’sha davrda to’plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san’at muktablarisiz, musavvir-pedagoglarning qarashlarisiz yaratish mumkin emas. Ma’lumki, san’at bir necha avlodning ko’p yillar davomida shakllangan an’analari, ustuning shogirdga o’tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so’zsiz

umumiyl badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston hududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi [shunchalik tez rivojlandiki](#), u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi.

**Sulton muhammad tabriziy** [Tabriz miniatyura maktabi](#) asoschilaridan. [Safaviylar](#) ([Shoh](#) Ismoil va [Shahzoda](#) Tahmosib) [saroy kutubxonasida](#) ishlagan. [Bexzod](#) bilan hamkorlikda [ijod](#) kilgan. [Og'a Mirak Isfahoni](#), [Mir Said Ali](#), [Muzaffar Ali](#) va boshqa bilan birga [qo'lyozma kitoblarga asarlar](#) yaratgan. Rassom asarlar yorqin, sof [ranglar](#) jozibasi, nozik chiziqlari, ajoyib [naqshlar](#) va [puxta](#) o'ylangan [tarhi](#), ko'tarinki [obrazlar silsilasi](#) bilan alohida [ajralib](#) turishini maqullagan. [Navoiyning "Devon"](#)i (1527), [Hofizning "Devon"](#)i (1537), [Nizomiyning "Hamsa"](#)(1539—43, [Britaniya muzeyida](#)), [Firdavsiyning "Shohnoma"](#) (1537) asarlari [qo'lyozmalariga rasmlar](#) ishlashda qatnashgan, [portretlar](#) va boshqa alohida [miniatyuralar](#) yaratgan. O'rta asrlarda O'rta Osiyo pedagog – qarashlarini o'rganar ekanmiz, yana o'z-o'zidan Kamolliddin Behzod ijodiga qaytamiz. Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Hirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqidagi ma'lumotlarni barchamiz bilamiz. Shuningdek, ustoz Mirak naqqoshning Hirot «Nigoristoni» (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum. Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtida nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavviir o'z atrofiga eng

iste'dodli yoshlami to'plagani, ularga san'atining sirasrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzahhib, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Abdulla Sherziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali singari o'nlab iste'dodli musawirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom ettirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

Bu davrda Behzod buyuk shoirlarning asarlariga jang, ov manzaralarini tasvirlovchi miniatyura kompozitsiyalari, illyustratsiyalar, portreldar ishlagan. U Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston", Nizomiyning "Xamsa", Xisrav Dehlaviyning "Xamsa", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Temur zafarnomasi", Alisher Navoiyning dostonlarini o'z miniatyura kompozitsiyalari bilan bezagan. Buyuk musavvir sifatida tanilgach Kamoliddin Behzod, Sulton Husayn saroyiga xizmatga chaqirilgan. 1487-yil Sulton Husayn farmoni bilan saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Keyinchalik bu joy o'z davrining badiiy akademyyasiga aylanadi. Uni mutaxassislar "Nigorxonayi Behyud" yoki "Behzod akademiyasi" deb ataganlar.<sup>1</sup> Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari qo'lyozmasining xattot Sherli ko'chirgan nusxasidagi 12 miniatyuraning 8 tasi Behzod asaridir. Rasmlarda rasmiy qabul, jang lavhalari, qal'a qamali bilan bir qatorda Samarqanddagi Bibixonim masjidi qurilishini tasvirlovchi qo'shaloq rasm ham mavjud. Nizomiyning "Hamsa" asari nusxasiga (1442, Londondagi Britaniya muzeyida) 1493—1535-yillar davomida ishlangan 19 miniatyuradan 3 tasi musavvir ijodi mahsuli. "Layli va Majnun qabilalari jangi", "Suvoriylar jangi" va "Bahrom Go'rning ajdar bilan olishuvi". Bularda "Savarrahu alabd Behzod" degan yozuv bor. Nizomiyning "Hamsa" asari nusxasidagi (1494, Londondagi Britaniya muzeyida) 22 rasmdan 7 tasida Behzodning nomi qayd etilgan. Amir Xusrav Dexlaviyning "Hamsa" asari qo'lyozmasidagi (1495, Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida) 13 rasmning 4 tasida rassom asarlariga xos xususiyatlar

<sup>1</sup> Miniatyura tarixidan lavhalar, T., 1970

mavjud. Bulardan tashqari, Behzod asarlari usha davr kutubxonalar, qo‘lyozma fondlari, muzeylari va shaxsiy majmualarda ham mavjud. Ustod pedagog sifatida behzod Hirot va Tabrizda qator shogirdlarni tarbiyalab yetkazdi. Uning shogirdlari musavvir an’analarni butun O‘rta Sharqqa yoydilar. Kamoliddin behzod an’analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

### **Adabiyotlar**

1. 2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.; Sharq, 997.-34-63 b.
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Boshlang‘ich sinflar. Tasviriy san’at.-T.; Sharq, 1999.-218-257 b.
3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Tasviriy san’at. 5-7 sinflar.-T.; Sharq, 1999. – 86 – 99 bb. ; 100-165 b.
4. Azimova B. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash metodikasi. – T.; O‘qituvchi,
5. 1984.-56 b.
6. Akilova K. Pesn zemli Karakalpakkoy. San’at-2000. - №4, - s 22- .25.
7. Alyoxin A.D.O yazike izobrazitelnogo iskusstvo .– M.;Znanie, 1973.- 48 s.
8. Axmedova N. Poiski ekspressii tsveta: jivopis Raxmona Shodieva.
9. //San’at. - 2000. - №1. - s. 24 -25.